

BAHOLASH TURLARI VA ULARNING TA'LIMDAGI O'RNI

Davletmuratova U.M.

NDPI 2-bosqich tayanch doktoranti
davletmuratovaulbosin0@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15643791>

Tayanch so'zlar: Ta'lim, baholash, baholash turlari, summativ va formativ baholash, diagnostik baholash.

Key words: Education, assessment, types of assessment, summative and formative assessment, diagnostic assessment.

Ta'lim- insonni hayotga tayorlovchi asosiy omil hisoblanib, uning o'zagi baholash hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'limni yanada rivojlanishiga oid uning negizi bo'lgan baholashga katta e'tibor qaratilmoqda. Baholash haqida ko'plab olimlar, ilmiy izlanuvchilar va hattoki yosh tadqiqotchilarning ham ilmiy ishlarida baholashning ahamiyati, ta'limdagi asosiy vazifasi haqida keltirib o'tilgan. Masalan, Hindiston tadqiqotchi olimlar Bilal Ahmad Baht va Gh Jeelani Bhat “Baholash - bu kognitiv, affektiv va psixomotor ta'limning uchta sohasini o'lchashga qaratilgan ta'lim dasturi. Yakuniy xulosaga kelish uchun jarayon ham, mahsulot ham baholanadi. Baholash natijalari har doim xulq-atvordagi o'zgarishlar bo'yicha baholanayotgan shaxs nuqtai nazaridan ifodalanadi. Baholash shtat miqyosidagi mas'uliyat testlaridan tortib, tuman mezonlari yoki oraliq testlar, kundalik sinf sinovlarigacha bo'lgan hamma narsani o'z ichiga olgan ulkan mavzudir” [1,776-777]deb ta'kidlab o'tadi. Baholash nafaqat ta'limda o'quvchining bilimni baholaydi, balki hayotda biror bir narsaga hukm chiqarish va baho berishda qo'llaniladi. Bu haqida Maddalena Taras “Baholash - bu hukm, bu qarorni qabul qilish uchun parametrlar, standartlar, mezonlar, kontekst talab qilinadi. Parametrlar baholovchining boshida yashirin bo'lishi mumkin yoki ular aniq bo'lishi va boshqalar bilan bo'lishi mumkin. Masalan: "Bu stul qulay, chunki" bu misolda ba'zi parametrlarni tinglovchi bilan baham ko'radigan hukmni uchratamiz. Ta'limda esa baholash, mulohazali jarayon, mahsulot yoki o'zaro ta'sirga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun, hamma narsani baholash mumkin va bu hamma joyda mavjud bo'lgan jarayon ko'pincha odatiy hol sifatida qabul qilinadi va kamdan-kam hollarda tahlil qilinadi yoki parchalanadi” [2;3020].

Hozirgi vaqtda an'anaviy baholashdan tashqari, har birining o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari mavjud bo'lgan turli xil baholash turlari mavjud. Har bir baholash turi katta ahamiyatga ega, o'z vazifasi va maqsadiga ega. Baholashning

asosiy uchta turi mavjud bo'lib, ular: diagnostik, summativ va formativ baholash turlari hisoblanadi.

Boshlang'ich baholash ya'ni diagnostik baholash– bu ta'lim jarayoni boshida o'lchash, tahlil qilish jarayoni hisoblanadi. Bu baholash turi asosan testlar, so'rovnoma, yozma ishlar orqali amalga oshiriladi. Diagnostik baholash ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlovchi, talabalar darajasini belgilab beruvchi, nazorat qiluvchi, tekshiruvchi, zarur ko'nikma va bilimlarni rivojlantiruvchi baholash vositasidir. Bu baholash o'quv yili, mavzu yoki akademik davr boshida amalga oshiriladigan tizimli va qat'iy ijro bo'lib, asosiy maqsadi dastlabki shogirdning holat va imkoniyatlarini belgilash hisoblanadi [3;34-35]. Bu fikrdan biz shuni anglaymizki, diagnostik baholashning ta'lim tizimida ahamiyati katta hisoblanib, o'quvchiga biror bir narsani o'rgatishdan avval uning darajasini aniqlash, nimani biladi, nimani bilishi zarur, qaysi ko'nikmasi yaxshi rivojlangan va qaysi ko'nikmani bilishi kerak degan savollarga javob topishda asos bo'ladi.

R. Amanboyeva “Bu ish uslubi dars materiallarini bilish jarayonining asosini tashkil etib, aniq bir pedagogik xulosaga kelishiga yordam beradi. Bu orqali pedagogic diagnostika o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi, davlat va jamiyatning ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib, o'quvchi bilimini to'g'ri, adolatli baholashni ta'minlaydi” [4; 296b].

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o'zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda. Bunday o'zgarishlarni ta'lim tizimida ham uchratishimiz mumkin. Yurt boshimiz tomonidan 2021 yil 24- dekabrda oily ta'lim tizimini tub ijobiy o'zgarishlarga olib keladigan oily ta'lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy boshqaruvda mustaqillik berish borasida ikkita tarixiy qaror imzolandi. Bu esa o'z navbatida, oily ta'lim muassasalari boshqaruvida yangicha tizim asosida yondashuvni talab etadi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Kamola Muradkasimova baholash jarayonidagi o'zgarishlar haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: “Jahon taraqqiyoti taraqqiy etgan sari, baholash evolyutsiyasi ham rivojlanishda davom etdi. Shunday qilib, sinov usullari, bilimlar tarix bo'yicha o'zgarib turadi, ammo natija o'zgarishlar bilan bir qatorda malakali mutaxassislarni etishtirish va tarbiyalashdir” [5;173].

Shunday qilib, bugungi kunda ta'lim tizimiga yangi baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va talim jarayoniga taqdim etilmoqda. Yangi baholash tizimi ta'lim tizimiga katta rivojlanishlar olib keladi va bu kelajak avlodning o'z sohasida yanada yaxshilangan yetuk kadr bo'lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bular formativ va summativ baholashdir. Bu yangi baholash turi Britaniyada tug'ilgan

avstraliyalik polimat va akademik faylasuf, baholash nazariyasi va amaliyotiga qo'shgan hissasi bilan mashhur bo'lgan Mark Scriven tomonidan 1976-yili amaliyotga taqdim etilgan. Quyida ushbu tizimga yangi kiritilgan baholash turlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Formativ baholash- o'rganish jarayonidagi barcha ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan davomiy jarayon bo'lib, o'quvchilarning faolligi, bilim olishi, ehtiyojlari va o'sishi haqida ma'lumot beruvchi doimiy jarayon bo'lib, ularning darsdagi faoliyatini kuzatish, uy vazifalarini nazorat qilish, qisqa testlar, so'rovnomalalar va shu kabi boshqa shakllarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Nesreen Alahmadi, Musaad Alrahaili, Doniazad Alshraideh “Formativ baholash usullari talabalarning umumiy muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarurdir. Formativ baholash bo'yicha miqdoriy va sifatli tadqiqotlar yuqori samaradorlikni oshirish uchun eng muhim tadbirlardan biri sifatida isbotlangan” deb ta'kidlaydi [6;261b].

Summativ baholash- Summativ baholash kurs oxiridagi yutuqni baho bilan yakunlaydi. Bu malakani baholash shart emas. Bu baholash ma'lum bir davrda berilgan bilimlarning darajasini aniqlashga qaratilgan. Ya'ni, o'qituvchi barcha mavzularni o'quvchiga o'rgatadi va o'quvchilarning berilgan bilimlarni egallagani yoki egallamagani aniqlanadi. Bu baholash turi asosan, test, yozma ish, og'zaki suhbat, loyiha ishi, taqdimot ishlari, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, ijodiy ishlar va shu kabi boshqa shakllar yordamida amalga oshiriladi. Bu baholash turi o'quvchilarning yakuniy natijalari va yutuqlarini baholab, kurs, semester yoki o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Jack States, R. Keyworth, Ronnie Detrich o'zining “Summative assessment” nomli chop etgan maqolasida, summativ baholash o'quv yili oxiridagi baholash bo'lib, belgilangan standard yoki ko'rsatkichlarga nisbatan, talabaning bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Bu baholash turi o'zlashtirishni baholab, uning hamkasbi talabalarga yordam beradigan diagnostika vositasi ya'ni formativ baholash hisoblanadi. Umuman olganda, summativ baholash alohida bir kishiga e'tibor qaratishdan ko'ra, ma'lum bir aholining aralashuvga qanday munosabatda bo'lishini o'lchaydi. U ko'pincha talabalar bo'yicha ma'lumotlarni jamlaydi, bu o'qituvchilar, ma'murlar va ota-onalarga milliy, shtat yoki mahalliy standartlarga mos keladigan materiallar, o'quv dasturlari va ko'rsatmalarning samaradorligini baholash imkonini beradigan mustaqil mezon sifatida ishlaydi.[7;2] deya ta'kidlab o'tgan.

Yangi baholash tizimining an'anaviy baholash uslubidan farqi shundaki, o'quvchiga darsda ishtirok etgani, uyga vazifani bajarganiga baho emas, ball beriladi.

Masalan, uyga vazifani a'lo bajargan o'quvchiga 4 ball beriladi. Agar o'quvchining bajargan uyga vazifasida xato va kamchiliklar bo'lsa, 3 ball oladi. Agar u darsda faol ishtirok etsa, u yana 6 ballni qo'lga kiritadi. Darsda o'quvchining faolligiga qarab 1 balldan 10 ballgacha beriladi. Shuningdek, o'quvchi bob bo'yicha summativ baholash, ya'ni bob bo'yicha summativ baholashdan 50 ball, chorak bo'yicha summativ baholash, ya'ni ChSB bo'yicha summativ baholashdan 40 ball olsa, u yetarli ballni to'plagan bo'ladi. O'quvchilar bir chorakda uch martagacha bob bo'yicha summativ baholanadi. Chorak yakuni bo'yicha bir marta baholanadi. Tekshirish yakuniga ko'ra, o'quvchilarning to'plagan ballari bir hafta muddat ichida elektron jurnalga qo'yiladi. Yangicha baholash tizimining afzalligi shundaki, o'qituvchi qasddan o'quvchiga past ball yoki yordam sifatida yuqori ball qo'ya olmaydi. O'z navbatida, o'quvchi ham harakat qilmasa, darslarni o'zlashtirmay, sinfdan sinfga qolishini anglab yetadi va o'qishga majbur bo'ladi. Sababi, yangicha baholash tizimida reja bo'yicha har chorakda to'rtta fanning bob yoki choraklik bo'yicha summativ imtihonlari Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi maktabining ishchi guruhi tomonidan olinadi. Har bir fan bo'yicha summativ baholash (BSB va ChSB) materiallari Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan taqdim etiladi. Yangicha baholash tizimida bir chorakda o'quvchi 30 balldan 100 balgacha to'plashi lozim. Agar u 30 balldan past ball olsa, “2” baho olgan hisoblanadi. Summativ baholash jarayoniga asosli sabablarga ko'ra qatnasha olmagan o'quvchilar uchun baholash jarayoni alohida o'tkazilishiga ruxsat beriladi. Endi o'qituvchi o'quvchining bahosini biroz oshirib qo'ya olmaydi. Yangicha baholash tizimida o'quvchining haqiqiy bahosi chiqadi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, baholash ta'limda muhim va uning negizidir. Baholash orqali ta'lim oluvchining egallagan bilimi aniqlanadi, mustahkamlanadi yoki xatoliklari to'g'rilanadi. Baholash turlarining belgilangan maqsad va vazifalari bo'lib, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bhat, Bilal & Bhat, Dr. (2019). Formative and Summative Evaluation Techniques for Improvement of Learning Process.
2. Maddalena Taras “ Assessment for learning : assessing the theory and evidence” <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2010.03.457> University of Sunderland, adepartment of education,Chester Road, SunderlandSRI 3SD,UK
3. Darwin Gustavo Lucas Delgado a Freddy Eduardo Anchundia Delgado b Pamela Mariana Zambrano Quiroz. “Permanent Application of Diagnostic Assessment on Learning Teaching Process” 34-35bet.
4. R.Amanboyeva “PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA UNING METODLARI” 296bet.

“JASLARDĪŃ ILIMDE TUTQAN ORNĪ”

atamasındađı XV respublikalıq ilimiy teoriyalıq konferenciya

5. Muradkasimova, Kamola (2021) "THE IMPORTANCE OF DEVELOPING TEACHERS' ASSESSMENT LITERACY COMPETENCE," *Philology Matters*: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 7. DOI: 10.36078/987654484 Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/7> 173-174 bet.
6. Alahmadi, N., Alrahaili, M., & Alshraideh, D. (2019). The Impact of the Formative Assessment in Speaking Test on Saudi Students' Performance. *Arab World English Journal*, 10 (1) 259-270. DOI: <https://dx.doi.org/10.24093/awej/vol10no1.22> 261 bet
7. Jack States, R. Keyworth, Ronnie Detrich “ summative assessment” 2 bet